

**MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA
BADIY ADABIYOTNING O'RNI**
Mamadiyeva Zilola Shavkat qizi

Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti, maktabgacha ta'lif yo'nalishi magistranti

Boshlang'ich sinfga qadam qo'ygan bolaning o'rtacha so'z boyligi taxminan 5000 so'zni tashkil qiladi [1]. Bu shuni anglatadiki, bir yoshdan besh yoshgacha bo'lgan bolalar har kuni (o'rtacha) taxminan 3,5 so'zni o'rganishadi. Buni amalga oshirish uchun bolalar nutqiga rivojlantirishga e'tibor qaratish kerak. Bolalar nafaqat ko'p eshitishlari, balki nimani tinglashlari ham muhimdir.

Badiiy adabiyot, kitoblar bolalarning lug'at boyligini oshiradi, nutqini rivojlantiradi, chunki ular:

- ko'pincha notanish so'zlarni o'z ichiga oladi;
- kitob o'qib berish davomida bolalar uchun yangi bo'lgan so'zlarni ular bilan birgalikda takrorlash, bolalarga so'zlarni tushunishga yordam beradi.

• Bolalarga bir xil so'zlarni takroriy o'qish bilan qayta-qayta eshitish imkoniyatini taqdim eting [1]

Nutqning rivojlanmasligi bolaning hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi va nutqning kechikish darajasi va ijtimoiy-iqtisodiy holat o'rtasidagi bog'lilikni hisobga olsak, barcha ijtimoiy-iqtisodiy guruuhlar uchun ochiq va samarali bo'lgan til vositalariga bo'lgan ehtiyoj juda katta. Bolalar nutqining rivojlantirishning eng samarali usuli ular bilan birgalikda ko'proq turli xildagi kitoblarni, ya'ni syujetli rasmlardan iborat bo'lgan matnlarni tahlil ilish, ertak kitoblarini birgalikda birgalikda o'qishdir.

Birgalikda kitob o'qish bola bilan kitob almashish yoki o'qish amaliyotini anglatadi. Bunga maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlari o'qishni boshlashdan oldin ular bilan birgalikda badiiy adabiyotni o'rganish individual yoki guruqli shaklda amalga oshiriladi. Biroq, kitob yo'qligida hikoya qilish, kontekstsiz suhbatlar bilan shug'ullanish, o'tgan voqealarni eslash yoki kelajak haqida gapirib kabi boshqa maktabgacha ta'lif tashkilotlarida olib boriladigan faoliyat shakllari ham o'zining samarali ta'sirini ko'rsatadi. Birgalikda kitob o'qishning ko'plab shakllari mavjud. Masalan, interfaol (yoki dialogik) o'qish kattalar va bolalar o'rtasidagi kitob haqidagi o'zaro ta'sir yoki suhbatni rivojlantirish uchun ma'lum bir texnik vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalaning nutqini rivojlantirish va maktabga tayyorgarlikni qo'llab-quvvatlash uchun pedagog va tarbiyachilarining kichik guruhdan boshlab bolalar bilan kitob o'qishlari muhim. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarning nutqini rivojlantirishda badiiy adabiyotlardan samarali foydalanish borasida juda ko'plab tadqiqotlar bo'lsa-da, bir qator masalalar o'zining yechimini kutmoqda.

Birinchidan, pedagog va bolalarning birgalikda kitob o'qishi uchun kitoblarning rang-barangligini boyitish zaruriyati mavjud. Masalan, bolalarning sezish, his qilish sohalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan adabiyotlarni yaratishga e'tibor qaratish. Janubiy Koreya bog'chalarida bu shakldagi kitoblardan keng foydalaniлади. Buyuk pedagog Lev Tolstoy: «Besh yashar boladan menqa qadar bir qadam, yangi tug'ilgan chaqaloqdan esa mengacha dahshatli masofa bor», degan ekan. Bu fikrni hozir neyrofiziologiya ham isbotladi. Ya'ni maktabgacha bo'lgan davr inson rivojlanishida eng muhim va keskin palla hisoblanadi. Ayni shu davr kelajagimizni hal qiladi. Maktabgacha yoshda olgan psixologik jarohatlar ham ulg'ayganimizda ruhiy holatimizga eng ko'p ta'sir etishi ilmiy isbotlangan faktadir. Demak, kitobxon jamiyat tuzmoqchimizmi, maktabgacha bo'lgan davrni tanlaylik.

Ikkinchidan, maktabgacha ta'lif tashkilotlarida kutubxona mavjud emas. Bog'chada bolalarning yoshiga mos rang-barang kitoblardan iborat maxsus kutubxonalarining bo'lishi, bolalarning badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Bolalarga quruq nasihat qiluvchi kitoblarning birortasi amaliy yordam berolmasligi neyrofiziologiya, neyropsixologiya, pedagogika va psixologiya ilmiy tadqiqotlarida aniqlandi va bolalar adabiyotini mutlaqo boshqa yondashuv, qarash bilan yozish kerakligi haqida ilmiy yo'nalishlar paydo bo'ldi.

Hozirgi zamon bolasiga bilim berish o'rniga, bilim topishni o'rgatish zarur. Masalan, bolaning ikki daqiqada telefon yoki kompyuterdan barcha dinozavrning nomini topadi va sizga aytib beradi. Hozir dogmatik usulda — «bu shunday, bu esa bunday», deb bilim berish samarasiz. Bilishimcha, oxirgi yigirma yilda paydo bo'lgan yangi bilimlar o'tgan 100 yildagi bilimlardan ham ko'proq. Bunday vaziyatda nima muhim — analytical thinking, ya'ni tahliliy tafakkur qilish muhim.

Uchinchidan, maktabgacha ta'lif tashkiloti pedagog va tarbiyachilarining bolalar nutqini rivojlantirishga xizmat qiladigan badiiy adabiyotlar bilan ishslash malakalarini rivojlantirish zarur.

To'rtinchidan, makabgacha ta'lif tashkiloti va ota-onalarning hamkorligi juda muhim. Uy—kutubxona—bog'cha birligi birinchi o'rinda. Kutubxona bola uchun eng yoqimli maskanga aylanishi

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

zarur. Pedagog-tarbiyachi ota-onalarga bolalarga uyda qanday kitoblarni o'qib berishlari uchun o'zlarining tavsiyalarini berib borishlari lozim. Chunki, qo'liga biror marta kitob olmagan odamning bolaga: "kitob o'qi", deb maslahat yoki buyruq berolmaydi. Janubiy Koreyada bir an'ana bor, onalar bolalari nechta to'garakka borishi bilan maqtanib gaplashadi. Chunki ota-onalar farzandi qo'shnisining farzandidan ortda qolishini xohlamaydi. Bu tizimga o'rgangan bolada o'z-o'zidan «Men doim bandman va shunday o'qishim kerak», degan fikr shakllanadi.

Makarenko ayni haqiqatni so'zlagan edi. Kitob o'qiladigan xonadonlarda mutolaaga mehr qo'ygan bolalar kamolga yetadi. Albatta, bu mutlaq haqiqat emas. Kitobi yo'q uylarda ham kitobxonlar bor. Ammo hamma joyda, har doim ham emas. Aksariyat oilalarda vaziyat taxminan quyidagicha: ona kuni bo'yicha uy-ro'zg'or ishlari bilan band, ozgina bo'sh vaqt topdi deguncha qo'shni ayollar bilan hasratlashishga oshiqadi. Televizor, serial ko'rish, to'y-ma'rakalarda qatnashish va boshqalarga ajratilgan vaqt kitob o'qishga yetmaydi. Ota esa kuni bo'yisi ishda bo'lib, kechqurun kelib ovqatlanadiyu, bir oz televizor ko'rgandek bo'lib, so'ngra uxlashga kirib ketadi. Bolasi bilan kitob o'qish, muhokama qilish, qanday kitoblarni o'qish bo'yicha maslahatlar berish, afsuski, oilalarda juda kam uchraydigan holat.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, badiiy adapiyot nafaqat bolalaning nutqini rivojlantirishga, balki ularni turli jihatdan intellektual qobiyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu borada maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog-tarbiyachilari va ota-onalar hamkorlikda faoliyat olib borsa, bolalarning kelajagi porloq bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Бердиева, Ханифа Мейлиевна Изучение научных основ механизации и автоматизации управления сельским хозяйством в курсе физики средней школы (на материале сельских школ Узбекистана). <https://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-02/dissertaciya-izuchenie-nauchnyh-osnov-mehanizatsii-i-avtomatizatsii-upravleniya-selskim-hozyaystvom-v-kurse-fiziki-sredney-shkoly-na-m>

2. Бердиева Х.М., Шаманов М.Х., Абдурахмонова Р.Х., Гулбоева Б.Н. Технология и методика обучения учащихся общеобразовательных школ // Студенческий вестник: электрон. научн. журн. 2018. № 29(49). URL: <https://internauka.org/journal/stud/herald/49> (дата обращения: 10.03.2022).

3. Бердиева Х.М. Развитие профессиональных коммуникативных навыков педагогов в сфере образования. <https://s.siteapi.org/d955411c180ee78/docs/khhp4bee6u8g8goowcsg0gcg8os0kw>

4. Berdiyeva Muhabbat Meyliyevna Pedagogical support and development of the intellectual opportunities of children in preschool education <http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2019/12/abstract-pedagogical-support-and-development-of-the-intellectual-opportunities-of-children.pdf>

5. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat. The quality of preschool education at the present stage. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year : 2021, Volume : 11, Issue : 10. [10.5958/2249-7137.2021.02402.2](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001)

<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001>

6. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat Tasks for preschool educators. [10.5958/2249-877X.2021.00078.3.](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023)

<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023>

7. Berdiyeva M.M. Formation of intellectual culture of a preschooler. <https://scientific-conference.com/images/PDF/2019/55/International-scientific-review-LIV-ISBN.pdf>

8. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Мактаб ўкувчиларини касб-хунарга ўргатиш йўллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20E2%84%9626%20%282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>

9. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Таълим тизимини модернизациялашдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш усуслари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20E2%84%9626%20%282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>

10. Бердиева Мухабат Мейлиевна. Педагогик қўллаб-қувватлаш асосида илк ёшдаги болаларни интеллектуал ривожлантириш. "Профессионал таълим тизимида ислохотлар: малака ошириш таълим турида инновацион foялар" мавзусидаги Xalqaro ilmий-amaliy konferensiya. <https://staff.tiame.uz/storage/users/546/articles/iMJfaUDoPQYZqSxUhG7olj9aZ9XSLff9CSErkMxL.pdf>

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqiyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

11. Usmanova Saodat Erkinovna. (2021). Formation of spiritual and moral qualities of preschoolers on the basis of public education. Middle European Scientific Bulletin, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.421>

12. Усманова Саодат Эркиновна Возможности Использования Мультимедийных Компьютерных Программ В Развитии Детей Дошкольного Возраста. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46438589>

13. Jumayeva malika aliyevna, & buriyev jamshid jumanazarovich. (2021). The role of activity in the upbringing and development of the child . International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1(2), 126–129. Retrieved from <https://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/40>

14. Jumayeva Malika Aliyevna. (2021). Independent musical activity in preschool organizations. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(1), 9–10. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/jedic/article/view/16>

15. Aliyevna, J. M. (2021). The Social Activity of the Educator with the Family. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 12, 401-403. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/338>

16. Lola Utasheva Shoturaevna. (2021). Social and pedagogical activities in preschool educational institutions. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(11), 412–415. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/193>

17. Shoturayevna, U. L. (2021). Development of Creative Competence of Educators in Preschool Educational Institutions. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 12, 395-397. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/336>

18. Radjabova G.M. The educational value of oral folk art for preschoolers // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

19. Berdieva M.M. Increasing the research activity of a pupil of a preschool organization // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

20. Berdieva Kh.M. Functions of the organization of advanced training of teachers in the field of education // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

21. Utasheva L.Sh. Introducing preschoolers to the world of fiction // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С. {см. сборник}.

22. Usmonova S.E. Plot construction as a means of developing the creative abilities of children // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

23. Muhammadiyeva F.T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С

24. Mammatmuminova M.G. Features of the use of animation in the development of creative abilities of preschoolers // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.